

Список использованных источников:

1. Tapscott D. The digital economy / D. Tapscott – Text: electronic// – 1994. – URL: <https://dontapscott.com/books/the-digital-economy/> (дата обращения 08.11.2020).
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 апреля 2020 года № 4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства».
3. Указ Президента Республики Узбекистан №6079 об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мер по ее эффективной реализации.
4. OECD Digital Economy Outlook 2017 (Summary in Polish) // OECD Digital Economy Outlook 2017. — 2017-10-11
5. The digital economy, new business models and key features // OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project. — OECD, 2014-09-16. — С. 69–97.
6. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы: Концепция развития цифровой экономики Узбекистана на 2020-2025 годы: <https://lex.uz/docs/4800661>

BOSHQARUV JARAYONLARI VA TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISH (O‘ZBEKISTON POCHTASI AJ MISOLIDA)

Axmadbekov Xokimbek Xasan o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi
xokimbek.axmadbekov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada pochta aloqasida boshqaruv jarayonlarini tashkil etishda saralash jarayonlarining o‘rni, jo‘natmani saralash uchun vaqt normasini hisobga olish, bu borada xorijiy olimlarning fikr-mulohazalar asosida jo‘natmani manzilga yetkazib berishning o‘ziga xos yo‘llariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: avtomatlashtirish, boshqaruv jarayonlari, boshqaruv tizimi, texnik normalash metodi.

Har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida pochta tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz uchun samarador pochta tizimini tizimli tashkil qilish va avtomatlashtirish juda ham muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda, pochta xizmatlarini ko‘rsatish bozori erkin bo‘lganligi sababli, Respublikamiz hududida milliy pochta operatori O‘zbekiston pochta AJ bilan birga yuzdan ortiq savdo tuzilmalari (pochta bozorining nodavlat operatorlari DHL, BTS, FedEx, Fargo, EMU, DMS va boshqalar) mijozlarga pochta xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu nodavlat tashkilotlarning barchasi mijozlarga sifatli va tezkor xizmat turlarini taqdim etish esa bosh maqsad qilib olingan.

Xizmat ko‘rsatish sifati operatorning o‘ziga xos xizmatni taqdim etish va undan foydalanishni osonlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Pochta aloqasi xizmatlarining sifat ko‘rsatkichlari esa pochta aloqasi punktlari va pochta aloqasi tarmoqlari zichligi va ularning ishlash muddati bilan tavsiflanadi[1].

Global innovatsion indeks 15 ta xalqaro indekslar, 4 ta Jahon iqtisodiyot forumi (World Economic Forum) tomonidan olib boriladigan so‘rovnomalarda 61 ta ko‘rsatkichga tegishli miqdoriy statistik ma’lumotlardan tashkil topgan. 2015-yil holati bo‘yicha o‘rganilganda, respublika ushbu reytingda 141 ta davlat ichida ma’lumotlarning yetarli darajada emasligi va mavjud statistik ma’lumotlarning eskirganligi bo‘yicha 4-o‘rinda deb topilganligini inobatga olsak, O‘zbekistonning 2020-yilda ushbu reytingda aks etishi ham xalqaro maydondagi nufuzini oshirishi zarur[2]. Ushbu jahon iqtisodiyot forumi (World Economic Forum) tomonidan olib boriladigan so‘rovnoma asosiy reytingni baholashda ularning sifat ko‘rsatkichlari inobatga olingan.

Pochta aloqasi xizmatlarining yangi tuzilmasini shakllantirish “O‘zbekiston pochta” AJ xizmatining sifati ko‘rsatkichlari va standartlarini Umumjahon pochta ittifoqi tomonidan ko‘zda tutilgan pochta strategiyasining talablariga muvofiq olib borish uning asosiy vazifasidir. O‘zbekiston Respublikasining pochta aloqasini rivojlantirish dasturida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, aloqa xizmatlari bozorining yangi segmentlarini kiritish orqali milliy operatorning pochta aloqasi tarmog‘ini rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish yuqori intensiv texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ular asosida odamning intensiv bevosita ishtirokisiz texnologik va yordamchi jarayonlarni bajaruvchi yuqori unumli jihozlarni yaratilgan tadbirlar kompleksi tushuniladi. Ishlab chiqarish jarayoni avtomatlashtirishdan avval doim mexanizatsiyalashtiriladi. Avtomatlashtirishda joriy mexanizatsiya avtomatik boshqarish obyekti bo‘lib xizmat qiladi[3].

O‘zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillarda pochta aloqasi sohasini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va har bir viloyatdan 3 tadan tumanlar namuna sifatida tanlab olinib, o‘sha tumanlarda pochta aloqasi xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha alohida yo‘l xaritasini tasdiqlash ko‘zda tutilgan.

Ushbu qaror loyihasini tayyorlash jarayonida ilg‘or xorijiy davlatlarning pochta aloqasi operatorlarining faoliyati o‘rganib chiqildi. O‘rganish natijasiga ko‘ra, ularning asosiy yo‘nalishlari bu xat-xabarlar, tezkor pochta jo‘natmalar, onlayn xizmatlar va bank (moliya) xizmatlari hisoblanishi aniqlandi.

Jumladan, AQShda 71 foiz, Belgiyada 68 foiz, Avstriyada 58 foiz, Buyuk Britaniyada 51 foiz daromadi pochta xizmatlaridan, Yaponiyada 79 foiz, Italiyada 78 foiz va Janubiy Koreyada 55 foiz daromadi moliyaviy xizmatlarni tashkil etadi. Yaponiya, Koreya, Xitoy, AQSh kabi rivojlangan davlatlar va Rossiya hamda Qozog‘iston davlatlarida bank va sug‘urta xizmatlari keng joriy etilgan[4].

Ilg‘or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini va tizimlarni joriy qilish orqali O‘zbekiston pochta AJni rivojlantirishning quyidagi 3 ta asosiy yo‘nalishlarini belgilab olish maqsadga muvofiq:

1. Yozma xat-xabar tashish va kurerlik xizmatlarini rivojlantirish;
2. Elektron tijorat bozoridagi faoliyatini rivojlantirish;
3. Moliyaviy xizmatlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston pochta AJ 2024-yil biznes rejasi B-18
2. O‘zbekiston Global innovatsion indeks reytingida 93-o‘rinni egalladi. <https://www.gazeta.uz/uz/2020/09/02/innovation-index/>
3. Usmanov A.I. Tursunboyev N.I. Bobonazarov O‘.Q “Mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish asoslari” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007 B-11.

EKOLOGIK TASHKILOTLARDA PR MATNLARINING QO‘LLANILISHI

Gulyamova Muxtabar Abdujabbarovna, O‘ZJOKU To‘g‘on va Qudrat Ernazarovlar nomidagi
Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya:

Jamoatchilik bilan aloqalar (PR) jamoatchilik idrokini shakllantirish va atrof-muhit muammolari bilan shug‘ullanishni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu maqola atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlarida PR matnlaridan foydalanishni o‘rganadi, ularning mazmuni, strategiyalari va manfaatdor tomonlar bilan muloqotga ta‘sirini tahlil qiladi. PR va atrof-muhit kommunikatsiyalarining nazariy asoslariga, shuningdek, empirik tadqiqotlarga tayangan holda, ushbu maqola PR matnlari ekologik xabarlarini etkazish, yordamni safarbar qilish va barqaror amaliyotlarni himoya qilish uchun qanday ishlatilishini o‘rganadi. Bundan